

BOLALARDA KOGNITIV QOBILYATLARNI RIVOJLANTIRISH

*Toshkent amaliy fanlar Universiteti
“Psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Xafizov Anvar*

Annotatsiya: Mazkur maqola Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirish masalasiga diqqat qaratadi. Shu jumladan, dunyo olimlarining bu mavzu borasidagi tadqiqotlarini o‘rganish natijasida ayrim fikr-mulohazalarni o‘quvchiga taqdim qiladi. Maqoladan pedagogika va psixologiya yo‘nalishida ta’lim beruvchi Mutaxassislar va bu sohada tahsil olayotgan talabalar jamoasi hamda mustaqil izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: ta’lim oluvchi, talaba, kognitiv qobiliyat, kognitiv rivojlanish, ta’lim tizimi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, Piaget.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi ta’lim oluvchilar (talabalar, o‘quvchilar)ni fikrlashga o‘rgatish ekanligi shubhasiz haqiqatdir. Mantiqiy fikrlash va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlar, maktab va Oliy ta’lim muassasalaridagi akademik yutuqlardan tashqari, kundalik hayotning asosiy ko‘nikmalaridir. Ta’lim standartlarini yaxshilash uchun kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish tabiati ta’limning barcha tarkibiy qismlarida, masalan, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitish amaliyoti va baholashda tushunilishi kerak. Ammo, afsuski, kognitiv rivojlanish ko‘proq o‘quv dasturi mavzulari talabalar darajasiga mos keladimi yoki yo‘qligini muhokama qilish uchun ishlatiladi. O‘qituvchilar o‘z kasbiy, amaliy faoliyat jarayonlarida talabalarda yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradigan o‘qitish bilan shug‘ullanmaydilar. O‘qituvchilar o‘zlarining o‘qitish amaliyotlari o‘quvchi va talabalarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadimi yoki yo‘qligini bazida nazardan chetda qoldirish holatlari ham uchrab turadi. Kognitiv rivojlanish talabaning tushunchalarni tushunishi, tanqidiy fikrlash va mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini anglatadi. Til kognitiv rivojlanishni rag‘batlantirsa, tilning murakkabligi kognitiv qobiliyatlarga ta’sir qiladi. Tilni qo‘llashda boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati o‘quvchi yoki talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tildan boshqa yana shuni aytib o‘tish lozimki, fan rivojlanish tarixiga nazar tashlansa, baholash ta’limning asosiy tarkibiy qismi ekaniga guvoh bo‘lish mumkin. Baholash qancha ta’lim maqsadlariga erishilganligi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etishdan tashqari ko‘plab funksiyalarga

ham ega sanaladi. Ulardan biri baholash talabalarning ta'lim strategiyalari va kognitiv rivojlanishiga ta'sir qilishidir. Misol uchun, agar o'qituvchi auditoriyada o'rganilgan mavzuni o'tkazishni talab qiladigan savollarni bermasa, u talabalarning chuqur o'rganish strategiyalari va yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar odatda o'zlari so'ragan savollar bilan qaysi kognitiv qobiliyatni baholayotganliklarini bilishmaydi, bu esa o'quvchilarda past darajadagi kognitiv qobiliyatlarni chuqurlashtirilishiga sabab bo'lib qoladi. Ta'lim sohasida ta'lim oluvchining kognitiv rivojlanishida ta'lim beruvchi muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina ta'lim beruvchi jamoa vakillari oddiy yoki tez-tez ishlatiladigan tushunchalarni yetkazish uchun tildan foydalanishlari mumkin. Biroq, malakali ta'lim beruvchi nafaqat kognitiv rivojlanish kontsepsiyasini tushunishi kerak, balki u yangi, mavhum yoki qiyin tushunchalarni yetkazish uchun tildan foydalanish kabi murakkab vazifani ham bajara olishi darkor. Talabalarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha jahonning ko'pgina mamlakatlarida ko'p olim-u tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilgan, tadqiqotlar o'tkazilgan. Hamda talabalarda kognitiv rivojlanish bo'yicha turlicha standartlardan foydalanilgan. Quyida shu bo'yicha fikr-mulohaza bildirish joiz deb topildi. Talabalarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda turlicha yondashuvlarga murojaat etish faqatgina ijobiy samara yo'lida xizmat qiladi. Kognitiv rivojlanishga ijobiy ta'sir etuvchi shunday yondashuvlardan biri sifatida Piaget yondashuvni misol qilish mumkin. Ushbu yondashuv kognitiv rivojlanish uchun til rivojlanishidan mustaqil deya taxmin qilinadi. Bundan tashqari axborot tovush, vizual ma'lumot, nutq va teginishni idrok etish orqali kognitiv rivojlanishni ra'batlantirmoqlik uchun ongga tashrif buyuradi. Madaniy muhit bilimga ta'sirini o'tkazadi, inson bilgan narsalarni, nima muhimligini, yangi vazifalarga qanday yondashish lozimligini, qanday munosabatda bo'lish zarurligini ham aniqlashga yordam beradi. Ijtimoiylashtirish kognitiv rivojlanishning muhim jihati hisoblanadi. Kognitiv rivojlanishda o'yin ham muhim rol o'ynaydi. Matnni fazoviy tartibga solish talabaga matnni kognitiv jihatdan tartibga solishga ko'mak beradi. Kognitiv tashkilot talabalarga tushunchalarni saqlash va eslab qolishga yordam ko'rsatadi. Talabalarga takrorlashni ta'minlash ularga naqshlarni, parallelliklarni, taqqoslashlarni va o'xshashliklarni ko'rish imkonini beradi, bularning barchasi ularga o'rganishga yordam beradi. Kognitiv rivojlanish nuqtai nazaridan, talabalar o'zlari o'ylayotgan narsalar va ular olgan yangi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lganda o'rganadilar. Ko'pincha bu talabani yangi ma'lumotlarga asoslangan kognitiv sxemani moslashtirishga yoki o'zgartirishga olib keladi. Kognitiv sxema - bu ma'lumotni tartibga soluvchi, tajribani anglatuvchi kognitiv tuzilma demakdir. Talabalar turli sohalarda sxemalarni ishlab chiqadilar: vosita, til, fikrlash, ijtimoiy va boshqalar.

Talabalar dunyo va tajribalarni oldingi tajribalar asosida ishlab chiqilgan kognitiv sxemalari nuqtai nazaridan izohlaydilar.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kognitiv rivojlanish tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilishga ta'sir qiluvchi intellekt va aqliy funksiyalarning kamolotini ifodalaydi. Piaget, Vygotskiy va Kolberg kabi jahon tanigan olimlar nafaqat ta'lim oluvchilar ahli uchun, balki insonning kognitiv rivojlanishini psixologik o'rganishga katta tadqiqot va tushunishga hissa qo'shdilar. Xatti-harakatlarni tushunish, fikrlashni tashkil etish, o'z tajribalari orqali voqelikni anglash, kognitiv rivojlanishga madaniy ta'sirlar, psixologning fikrlash jarayonlarini o'zgartirish bo'yicha ko'rsatmalari, kognitiv rivojlanishdagi ijtimoiy o'zaro ta'sir, axloqiy rivojlanish jarayonlari va axloqiy realizm ularning ta'siri ostida bo'lgan ba'zi yo'nalishlar sirasidan deya e'tirof eti

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arsalidou, M. & Pascual-Leone, J. (2016). Constructivist developmental theory is needed in developmental neuroscience. *NPJ, Science of Learning* (2016) 1, 16016; doi:10.1038/npjscilearn.2016.16; published online 14 December 2016.
2. Kohlberg, L., (1927-1987). *The Child as a Moral Philosopher. The Grand Theories.* (pg. 21-27).
3. Sophian, C. (1997). Beyond competence: The significance of performance for conceptual development. *Cognitive Development*, 12, 281–303.
4. Tappan, M. (1998). *Moral Education in the Zone of Proximal Development.*
5. Wason, P. (1983). Realism and rationality in the selection task. In J. St. B. Evans (Ed.), *Thinking and reasoning: Psychological approaches* (pp. 44–75). London: Routledge & Kegan Paul.
6. Zimmerman, C. (2000). The development of scientific reasoning skills. *Developmental Review*, 20, 99–149.